



TURKISTON GENERAL-GUBERNATORI K.P. FON KAUFMANNING SIYOSIY FAOLIYATI

Raximov Oybek Xasanboy o'g'li

E-mail: oybekjon.9990@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston general-gubernatori Konstantin Petrovich fon Kaufmanning siyosiy faoliyati tahlil qilinadi. Unda Kaufmanning Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishdagi roli, mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirishga qo'shgan hissasi hamda Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, uning faoliyatida markaziy hokimiyat bilan munosabatlar va siyosiy islohotlarning o'rni ham o'rganiladi.

Kalit so'zlar: K.P. fon Kaufman, Turkiston general-gubernatorligi, Rossiya imperiyasi, siyosiy faoliyat, mustamlakachilik siyosati, islohotlar, boshqaruv tizimi.

Abstract: This article analyzes the political activity of Konstantin Petrovich von Kaufmann, the first Governor-General of Turkestan. It explores his role in implementing the colonial policy of the Russian Empire, his contribution to the establishment of the local administrative system, and his influence on socio-political transformations in the region. The paper also examines his relations with the central government and evaluates the impact of political reforms carried out during his administration.

Keywords: K.P. von Kaufmann, Turkestan Governor-General, Russian Empire, political activity, colonial policy, administrative reforms, governance.

Аннотация: В данной статье рассматривается политическая деятельность генерал-губернатора Туркестана Константина Петровича фон Кауфмана. Анализируется его роль в реализации колониальной политики Российской империи, вклад в формирование местной системы управления и влияние на социально-политические преобразования в Туркестанском крае. Также изучаются его отношения с центральной властью и значение политических реформ в период его управления.

Ключевые слова: К.П. фон Кауфман, Туркестанское генерал-губернаторство, Российская империя, политическая деятельность, колониальная политика, реформы, система управления.

Rossiya imperiyasi imperatori Pyotr I "ilg'or G'arb davlatlariga yetib olish va undan o'zib ketish maqsadida" yangi hududiy boshqaruv asoslarini yaratdi. Ya'ni, imperiyada guberniyalar joriy etildi, bu guberniyalarning boshlig'i gubernator hisoblangan. Rossiya imperiyasida "Gubernatorlik institute" qariyb 200 yildan oshiq vaqt davomida (1708-yildan 1917-yilgacha) amalda bo'ldi. Bu



tizim uzoq va qiyin bo'lgan rivojlanish yo'lini boshidan kechirganlig'ni bir qancha tarixiy hujjatlar va manbalardan bilib olish mumkin[1].

Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklari hududlariga harbiy yurishlarining birinchi bosqichida ya'ni 1847-1865 yillar davomida zabt etilgan hududlarda o'zining mustamlaka boshqaruv tizimini o'rnatish maqsadida dastlab, 1865 yil 2 martda Rossiya Senatining Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Orol dengizidan Issiqko'lgacha bo'lgan O'rta Osiyo xonliklari bilan chegaradosh hududlarda Turkiston viloyatini tashkil qilish to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Bu hududda taxminan 453 ming kishi istiqomat qilar edi [2]. 1867 yilda Rossiya imperiyasi tomonidan egallab olingan barcha hududda Turkiston general gubernatorligi tashkil etildi, uning tarkibida dastlab, ikkita markazi Toshkent bo'lgan Sirdaryo viloyati hamda markazi Verniy shahrida bo'lgan Yettisuv viloyatlari kiritilgan [3]. Yangi va katta hududlarni egallash, zabt etish jarayoni hech qachon tez va ososn amalga oshadigan jarayon emas. Natija albatta qo'llanilgan ko'plab metod va usullarga bog'liq bo'lgan [4].

Turkiston general-gubernatorligidagi harbiy-byurokratik boshqaruv tizimining boshlig'i podsho tomonidan tayinlanib, xizmat yuzasidan Rossiya

Harbiy vazirligiga bo'ysunuvchi general-gubernator hisoblanardi. U ham fuqaroviy ma'muriyat boshlig'i, ham Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari bosh qo'mondoni edi. Shuningdek, umumimperiya qonunlariga ko'ra, general-gubernator "podsho hokimiyati huquqlari, davlat manfaatlarini daxlsizligi, qonunlar bajarilishining bosh posboni"ga aylantirilgan edi [5].

Bu vaqtda, O'rta Osiyoning imperiya tomonidan egallab olingan hududlarida qiyin vaziyat hukm surayotgan edi. Ruslarning bu hududdan ko'zlangan strategik maqsadlari uzoqqa mo'ljallangan bo'lib, uni amalga oshirishda iqtidorli vakil kerak edi. Shuningdek, Yangi qo'lga kiritilyotgan Turkiston o'lkasidagi imperatorning rasmiy vakili bir vaqtning o'zida mohir diplomatik iqtidor egasi, yaxshi tashkilotchi va eng asosiysi harbiy bilim va amaliyoti yaxshi bo'lishi kerak edi [6]. Bunga munsib nomzod sifatida K.P. fon Kaufman munosib deb topildi. Uning mustamlakachilik siyosatini olib borishdagi qattiqqo'llik siyosati va ko'p yillik tajribasi hamda Kavkaz hududida orttirgan harbiy mahorati bunga juda mos kelar edi.

K.P. Kaufman 1865-yilda Vilen harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni etib tayinlanadi. Lekin u bu xizmat vazifasida uncha uzoq turmadi. Shimoli -g'arbiy guberniyada bir yil xizmat qilgan K.P.Kaufman "isyon" bilan kurashib, o'lka demokratik ziyolilarining xalq orasida vatanparvarlik va erksevarlik g'oyalarini yoyishga barcha urinishlarini chipakka chiqardi. Biroq tez orada Rossiya jandarmeriyasi boshlig'i graf P.A. Shuvalov bilan o'rtalarida mojaro ro'y berdi. O'sha davr esdaliknavislarining guvohlik berishicha, K.P.Kaufman 1863-yilgi Polsha qo'zg'oloni ishtirokchisi I.Ogrizkoni sudga tortadi. I.Ogrizkoga



Shuvalovning millati polyak bo'lmish rafiqasi homiylik qilardi. Oqibatda 1866-yil 9-oktabrda farmoni chiqarilib, unga ko'ra Kaufman "egallab turgan lavozimidan general-adyutant unvonini qoldirgan holda bo'shatish" asnosida 11 oylik ta'tilga chiqarildi[7].1867-yil 14-iyulda general-leytenant K.P. fon Kaufman Turkiston generalgubernatori va Turkiston harbiy okrugining boshlig'i hamda urush harakatlarining yo'l boshchisi sifatida tayinlandi. Podsho yorlig'i K.P. fon Kaufmanga "barcha siyosiy chegara va savdo-sotiq ishlarini hal qilish, qo'shni mamlakatlarda muzokara olib borish va traktatalarni imzolash, qarorlar uchun shartlarni kelishish" vakolatini berar edi [8].1867-yil oktabrda, tashkiliy savollarga javob topilganidan so'ng generalleytenant K.P. Kaufman Peterburgdan o'zining yangi "ish joyiga" jo'nab ketdi.

Birinci muhim nuqta va e'tibor, eng tez va muqobil yo'l Orenburg orqali Toshkentga kelish edi. Ammo K.P. Kaufman aylanma yo'l: Semipalatinsk orqali Sergiopol va Semirechye ya'ni, Yettisuv viloyatining markazi Verniy orqali borishni ma'qul ko'rdi. Bundan ko'zlangan maqsad, mahalliy ishlarni ko'rib chiqish va ulkan mintaqaning urf-odatlarini bilan tanishish edi. Toshkentga kelish davomida mahalliy ishlarga alohida e'tibor qaratildi. Shu yili 7-noyabr kuni K.P.Kaufman Toshkentga yetib keldi va general-gubernatorlik faoliyatini boshladi.

Turkistondagi xizmati davomida K.P.Kaufman o'zini qattiqo'l istilochi, ayni mahalda iste'dodli va serg'ayrat ma'mur sifatida namoyon etdi. U o'ziga noma'lum o'lkaning murakkab sharoitiga moslasha bildi va Turkiston generalgubernatori lavozimida uzoq ishlash borasida o'ziga xos natija ko'rsatdi. K.P.Kaufman ancha oqil va sa'vodli ma'mur edi, ammo Rossiya generalitetining tipik vakili sifatida liberalizmga moyil emasdi va bosib olingan o'lkada mustamlakachilik siyosatini qattiqqo'llik bilan yurgizdi. U o'lkadagi 1867-1882 yillar davomidagi faoliyatida Rossiya imperiyasining yangi mustamlaka hududlaridagi manfaatlarini o'ziniki o'rnida ko'rib "podshoh va vatanga" sadoqat bilan xizmat qildi.

K.P.Kaufman Rossiya imperiyasining bu davrdagi barcha bosqinchilik yurishlariga rahbarlik qildi. Rus qo'shinlarining Samarqandni bosib olishini tasvirlagan L.Kostenko shunday yozadi: "Qattiq qarshilik ko'rsatishdan g'azab otiga mingan fon Kaufman asir olmaslik to'g'risida buyruq berdi. Buyruq aniq bajarildi. Yaradorlar vaxshiyalarcha kaltaklandi" [9].

Turkiston xalqlarining fojiasi Rossiya imperiyasi generallari tantanasiga aylandi, jumladan, Kaufman bir qator harbiy yurishlarda ishtiroki uchun shon sharaf va unvonlarga burkandi. 1874-yilda u to'la general unvoniga sazovor bo'ldi va uning ismi sharifi Peterburgdagi Muhandislik bilim yurti taxtasiga "Samarqand - 1868" yozuvi bilan oltin harflar ila bitilishiga farmoyish berdi. K.P.Kaufman ma'muriyatining o'lkani boshqarish borasidagi chora tadbirlarini yetarlicha ehtiyotkorona va mahalliy odatlar va an'analarga nisbatan majburan yon



beruvchi deya tavsiflash mumkin. O'lkani iqtisodiy o'zlashtirish borasida oldinda turgan vazifalarni yaxshi tushungan Kaufman, o'zining vorislaridan farqli o'laroq, mintaqadagi ichki siyosatda ko'pgina tashabbuslar ijodkori bo'lgan edi. Ma'lumki, uning davrida ya'ni 1873 yilda Turkistondagi rus mulklarida, Buxoro amirligi va Xiva xonligida qullik qonun yo'li bilan ta'qiqlangan edi. Turkiston hududiga giyohvand moddalar olib kelinishi qat'iyon ta'qiqlanib, ular "tashima savdo to'g'risidagi Muvaqqat qoidalar"ga muvofiq qo'lga tushirilgan taqdirda musodara etilar edi. Shu bilan birga, Turkistondagi K.P.Kaufman ma'muriyati siyosatinnig o'ziga xos jihatlaridan biri mahalliy aholining diniy hayotiga, an'analari va urf odatlariga aralashmaslik prinsipiga rioya qilgan. Eski musulmon institutlari faoliyati deyarli o'zgarishsiz qoldi [10]. Mahalliy aholi uchun, masalan, Volgabo'yida bo'lgani kabi, musulmonlikdan voz kechgan va xristianlikka o'tganlarga nafaqa belgilanmagan bo'lsada, aholi xristianlikni qabul qilishga majbur etilmadi. Kaufman faoliyatining ana shu jihatini Turkistonni boshqarish bo'yicha tadbirlarni ilk marotaba yoritgan Yevropa publitsistlari xatto "dohiyona" deb ta'riflagan edilar. Ularning taxmin qilishicha, ana shu tadbirlar tufayli Rossiya mintaqada yirik siyosiy larzalarga duchor bo'lmadi va vaziyatni barqarorlashtirishga erishdi [11]. Gap, albatta, K.P. Kaufmanning "dohiyoligida" emas, balki uning ehtiyotkorligi va vaziyatni to'g'ri baholay olish layoqatidadir.

"Rus hokimiyatiga itoat etmaslik", "undan ozod bo'lishga shaylik" – K.P.Kaufmanning bosib olingan yerlardagi majburiy siyosatining asosiy sababi sifatida qabul qilindi. U o'z qo'l ostidagilariga "ularning o'z tabaalariga nisbatan yangi mavqeida" ekanligini, Turkiston xalqlarining "eskirgan siyosiy va ijtimoiy hayoti shakllarini" "fuqarolikning yangi normalari bilan" almashtirish zarurligini singdirishga uringan [12].

K.P.Kaufman tomonidan tayyorlangan Turkistonni boshqarish bo'yicha (1873 va boshqalar) loyihalar ularni "siyosiy nuqtai nazardan zararli", K.P.Kaufmanning yer soliq masalalariga aralashuvini "bemahal va o'rinsiz" deb hisoblagan Rossiya vazirliklari tomonidan ikki marotaba rad etildi. K.P.Kaufmanni "byurokratik keskinlik"da, ya'ni muhim davlat masalalarini ixtiyoriy yondashuvda ayblash uchun loyihalar yetarlicha to'liq ishlab chiqilmaganligi to'g'risidagi mulohazalar bahona bo'ldi.

Rossiya imperiyasini hukmron tuzilmalarning jiddiy mulohazalari va ogohlantirishlariga qaramasdan, o'ziga berilgan "o'lka boshqaruvini mahalliy sharoitga muvofiq o'zgartirish" huquqidan foydalangan K.P. Kaufman yer-suv masalasi bo'yicha bir qator chora tadbirlarni amalga oshirdi, shu jumladan, uning ko'rsatmalariga muvofiq mulk yerlari davlat hisobiga tortib olingan va mulkdorlarning imtiyozlari bekor qilingan; ularning yerlari ham amlok yerlari barobarida soliqqa tortilgan, yer borasida da'volashuvlar yuzaga kelgan taqdirda



da'volashuv paytida "amaldagi yerga egalik"ni majburiy hisobga olish zaruratiga ishora qilingan edi [13].

K.P.Kaufmanning bunday "o'zboshimchaligi" taftishchi Girsga keyinchalik o'lni boshqarish uchun podshoh tomonidan unga berilgan huquqlardan ancha muncha chetga chiqqanligi va o'lkani boshqarish uchun 1867-yilda ko'rsatilgan eng asosiy qoidalarni ko'p hollarda o'zgartirgan deb aytishga bahona bo'lgan edi. K.P.Kaufman siyosati bilan shartlangan O'rta Osiyoni "o'zlashtirish" sur'atlari Rossiya hukmron doiralarini ham, burjuaziyani ham qanoatlantirmasdi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Kaufman Turkistonga vaziyat ancha murakkablashgan bir paytda keldi va shunga qaramasdan, o'z hokimiyatini ancha paytgacha qo'lda ushlab tura oldi, bir qator natijalarga ham erishdi. Konstantin Petrovich fon Kaufman ancha jiddiy va muhim bo'lgan lavozimlarda ishlagan (1861-yilda Harbiy vazirlik devoniga boshliq bo'lgan)

Rossiya imperiyasining ma'muri bo'lganligi uchun ham uning Turkiston o'lkasiga moslashishi qiyin bo'lmadi. U tashqi siyosatda ham o'ta ehtiyotkor bo'ldi va o'zidan keyingi ayrim general-gubernatorlarga o'xshab (masalan, M.G. Chernyayevning tashqi siyosatdagi o'zboshimchaligi) xatoga yo'l qo'ymadi. K.P. Kaufman o'lkada o'zining nafaqat harbiy yurishlari va diplomatik sa'yharakatlari bilan, balki ilmiy va ma'muriy faoliyati bilan ham mashhur. Masalan, K.P. Kaufman uning buyrug'iga ko'ra tayyorlangan, o'lka ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotini o'zida aks ettiruvchi bir necha noyob to'plamlarning tashabbuskori ham hisoblanadi. Bosib olingan hududning suratlardagi eng to'liq obrazi "Turkiston albomi"da yaratilgan edi. Uning buyrug'iga asosan "Turkiston albomi" tayyorlanib, unda 1200 dan ortiq surat, shuningdek, arxitektura rejalari, akvarelda chizilgan rasm va xaritalar o'rin olgan.

Shuningdek, K.P. fon Kaufman o'zining ba'zi vorislaridan farqli o'laroq ma'muriyat amaliyoti jarayonida Turkistonga uning tarixi, etnografiyasi, arxeologiyasi, madaniyati, tabiiy boyliklarini tadqiq etish maqsadida kelgan Rossiya jamoatchiligi vakillariga ko'mak bergan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, XIX asrning 60 yillari oxiriga

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklari hududlarini bosib olishi natijasida qo'lga kiritgan hududlarida Turkiston general-gubernatorligini tashkil etib, yangi mustamlaka boshqaruv tizimining o'rnatdi. Natijada bu hududlarni idora qilish imperator tomonidan tayinlanadigan general-gubernator vakolatiga kiritildi. Bu vazifani birinchi bo'lib amalga oshirish K.P.Kaufman zimmasiga tushgan. U Turkiston o'lkasini boshqarishda barcha sohalarda eng avvalo imperiya mafaatlariidan kelib chiqib ish ko'rgan. Lekin ayrim masalalarda, xususan, o'lka aholisining diniy e'tiqodlar, yer-mulkchilik, suv manbalaridan foydalanish, mahalliy boshqaruv vakillarini mansabga tayinlash va boshqa shu kabi masalalarda K.P.Kaufman mahalliy aholining mafaatlar bilan hisoblashishga



majbur bo'lgan. Chunki, uning hukmronligining dastlabki davrida o'lkada mustamlaka hokimiyati to'liq mustahkamlanmagan edi. Shu sababli, K.P.Kaufman olib borgan siyosatida har tomonlama extiyotkorlik bilan ish ko'rganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лысенко Л.М. Губернаторы и генерал губернаторы Российской империи (XVIII – начало XX века). М.:изд-во МПГУ. 2001. –С.3.
2. Абдурахимова Н.А., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX – I четверти XX в.в. –Т.: Университет. 1999. –С. 19.
3. Юнусходжаева М.Ю. Из истории землевладения в до революционном Туркестане. –Т.: 1970.; Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября. –Т.: Фан, 1973. –С.20.
4. <https://topwar.ru/110844-ustroitel-turkestanskogo-kraya-k-p-kaufman.html>
5. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. –Тошкент: Академия, 2002. –Б.
6. <https://topwar.ru/110844-ustroitel-turkestanskogo-kraya-k-p-kaufman.html>
7. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. –Т.: Академия, 2002. –Б. 177.
8. Абдурахимова Н.А., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX – I четверти XX в.в. –Т.: Университет. 1999. –С. 46.
9. Костенко Л. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. –СПб., 1871.– С.161.
10. Костенко Л. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. –СПб., 1871.– С.161.
11. Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края. Москва, 1980.– С.34.
12. Чижов В. Культурные преобразования К.П. Кауфмана в Туркестане. Одесса, 1915.– С.16.
13. Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению, в 2 -частях. Ч. Администрация Управления краем. – С.4.